



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 44 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING RAQAMLI RESURS BAZASINI YARATISH KOMPETENSIYASI: TUZILMA VA MEZONLAR

Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi nazariy jihatdan tahlil qilinib, uning tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari ilmiy asoslanadi. Tadqiqot maqsadi - mazkur kompetensiyani tashkil etuvchi komponentlarni aniqlash va ularning har biri uchun obyektiv baholash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda TPACK, UNESCO ICT-CFT va ISTE xalqaro nazariy modellari qiyosiy-nazariy tahlil, sintez va sistemalashtirish metodlari asosida o'rganildi. Natijada kompetensiyaning to'rt komponentli tuzilmasi - kognitiv, operatsional-amaliy, motivatsion-qadriyat va refleksiv-baholash komponentlari - asoslab berildi hamda har bir komponent bo'yicha aniq baholash ko'rsatkichlari taklif etildi. Ishlab chiqilgan model pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim dasturlarini takomillashtirish va talabalar kompetensiyasini diagnostika qilish vositasi sifatida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: raqamli resurs bazasi, kompetensiya tuzilmasi, baholash mezonlari, bo'lajak o'qituvchi, TPACK, raqamli ta'lim resurslari.

Abstract: This article theoretically analyzes future teachers' competence in creating digital resource databases and provides a scientific rationale for its structure and assessment criteria. The purpose of the study is to identify the components constituting this competence and to develop objective assessment criteria for each. Using comparative-theoretical analysis, synthesis, and systematization, the international frameworks TPACK, UNESCO ICT-CFT, and ISTE were examined. As a result, a four-component structure of the competence is substantiated - cognitive, operational-practical, motivational-value, and reflective-evaluative components - together with concrete assessment indicators for each. The proposed model has practical value as a tool for improving educational programs and diagnosing students' competence in pedagogical higher education institutions.

Key words: digital resource database, competence structure, assessment criteria, future teacher, TPACK, digital educational resources.

Аннотация: В статье теоретически анализируется компетенция будущих учителей по созданию баз данных цифровых ресурсов, научно обосновывается её структура и критерии оценки. Цель исследования - определить компоненты, составляющие данную компетенцию, и разработать объективные критерии оценки для каждого из них. С применением методов сравнительно-теоретического анализа, синтеза и систематизации были изучены международные модели TPACK, UNESCO ICT-CFT и ISTE. В результате обоснована четырёхкомпонентная структура компетенции - когнитивный, операционно-практический, мотивационно-ценностный и рефлексивно-оценочный компоненты, а также предложены конкретные показатели оценки по каждому компоненту. Разработанная модель имеет практическое значение как инструмент совершенствования образовательных программ и диагностики компетентности студентов в педагогических вузах.

Ключевые слова: база данных цифровых ресурсов, структура компетенции, критерии оценки, будущий учитель, TPACK, цифровые образовательные ресурсы.

KIRISH

Ta'lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchining nafaqat tayyor raqamli resurslardan foydalanish, balki ularni mustaqil loyihalash, tizimlashtirish va ma'lumotlar bazasi shaklida yaratish kompetensiyasiga ega bo'lishi muhim kasbiy talablardan biriga aylanmoqda. Biroq amaliyotda ushbu kompetensiyaning aniq tarkibiy tuzilmasi va uni baholash mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmagan, natijada ta'lim dasturlarida uning shakllanishi tasodifiy va tizimsiz tarzda kechmoqda.

Tadqiqotning maqsadi - bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasini tashkil etuvchi komponentlarni nazariy jihatdan aniqlash va har bir komponent uchun ilmiy asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat.



Vazifalar:

- 1) mavzuga oid xalqaro va mahalliy nazariy modellarni qiyosiy tahlil qilish;
- 2) kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini sistemalashtirish;
- 3) har bir komponent bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini asoslashda bir qator xalqaro nazariy modellarga tayanish maqsadga muvofiq.

P. Mishra va M. Koehlnerning texnologik-pedagogik-mazmuniy bilim (TPACK) modeli ^[1] o'qituvchi bilimini texnologik, pedagogik va mazmuniy komponentlarning o'zaro kesishuvi sifatida talqin qiladi va bu yondashuv raqamli resurs bazasi yaratish kompetensiyasining bilim komponentini asoslashda nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

UNESCOning o'qituvchilar uchun AKT kompetentlik doiraviy tizimi ^[2] o'qituvchi faoliyatini texnologik savodxonlikdan tortib bilim yaratish darajasigacha bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida ko'rsatadi, bunda raqamli resurslarni yaratish va boshqarish alohida yo'nalish sifatida ajratiladi.

ISTE ta'lim standartlari ^[3] o'qituvchidan "dizayner" va "hamkor" rollarida raqamli resurslarni loyihalash va ulashish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi.

Yevropa Komissiyasining DigCompEdu modeli ^[4] esa "Raqamli resurslar" sohasini alohida kompetensiya yo'nalishi sifatida belgilab, resurslarni tanlash, yaratish va o'zgartirish ko'nikmalarini oltita malaka darajasi (A1–C2) bo'yicha tavsiflaydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Sh.A. Xujakulov va T.B. Qodirov ^[5] bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi masalalarini o'rganib, DigCompEdu asosidagi tizimli yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydilar.

H.X. Qurbonov va D.I. Jumayev ^[6] o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyasini tahlil qilib, undagi resurslardan foydalanish komponentining alohida ahamiyatini ko'rsatadilar.

Ko'rib chiqilgan manbalarda raqamli resurslarni yaratish kompetensiyasi umumiy raqamli kompetensiyaning muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri sifatida yoritilgan. Mazkur yo'nalishning mustaqil tuzilmasi va o'ziga xos baholash mezonlarini yanada kengroq tadqiq etish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur maqola doirasida raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlarini alohida o'rganish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, unda qiyosiy-nazariy tahlil, sintez, induksiya-deduksiya va sistemalashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil manbai sifatida yuqorida ko'rsatilgan xalqaro (TPACK, UNESCO ICT-CFT, ISTE, DigCompEdu) va mahalliy ilmiy manbalar tanlab olindi. Ushbu manbalarda tavsiflangan kompetensiya komponentlari o'zaro qiyoslandi, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi hamda "raqamli resurs bazasini yaratish" faoliyatiga xos bo'lgan komponentlar ajratib ko'rsatildi. So'ngra har bir komponent uchun uning namoyon bo'lish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi mezon va ko'rsatkichlar modellashirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan nazariy tahlil natijasida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi to'rt o'zaro bog'liq komponentdan iborat tuzilma sifatida asoslandi. Komponentlar hamda ularning mazmuni va baholash mezonlari (1-jadval).

1-jadval: Raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasining tarkibiy komponentlari va baholash mezonlari

Komponent	Mazmuni	Baholash mezonlari (ko'rsatkichi)
Kognitiv (bilim) komponenti	Ma'lumotlar bazasi tuzilishi, MBBT (masalan, MS Access, MySQL), metama'lumot standartlari (Dublin Core kabi) va raqamli resurslarni didaktik saralash mezonlari haqidagi bilimlar	Nazariy bilimlarni test yoki yozma ish orqali aniqlash; tushunchalarni izohlay olish darajasi
Operatsional-amaliy (ko'nikma) komponenti	Resurslarni loyihalash, tasniflash, indekslash, MBBTda jadval va so'rovlar tuzish, metama'lumot kiritish, bazani sinovdan o'tkazish	Amaliy topshiriqni mustaqil bajarish sifati va vaqti; yaratilgan baza tuzilmasining to'g'riligi



Komponent	Mazmuni	Baholash mezonlari (ko'rsatkichi)
Motivatsion-qadriyat komponenti	Kompetensiyani kasbiy zarurat sifatida anglash, mualliflik huquqi va ma'lumotlar xavfsizligiga oid axloqiy-huquqiy javobgarlik, o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlik	So'rovnoma va kuzatuv orqali munosabat va motivatsiya darajasini aniqlash
Refleksiv-baholash komponenti	Yaratilgan resurs bazasi sifatini, foydalanuvchanligini va ta'lim ehtiyojlariga mosligini mustaqil tahlil qilish qobiliyati	O'z faoliyatini tahlil qiluvchi portfolio yoki o'z-o'zini baholash varag'i natijalari

Kognitiv komponent kompetensiyaning bilimga asoslangan poydevorini tashkil etadi va TPACK modelidagi texnologik bilim bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi ^[1].

Operatsional-amaliy komponent DigCompEdu doiraviy tizimidagi "Raqamli resurslar" sohasining amaliy o'lchamiga mos keladi va malaka darajalari (A1–C2) orqali bosqichma-bosqich baholanishi mumkin ^[4].

Motivatsion-qadriyat komponenti ISTE standartlaridagi kasbiy javobgarlik va raqamli fuqarolik tamoyillari bilan uyg'un bo'lib ^[3], mualliflik huquqi va ma'lumotlar xavfsizligiga oid axloqiy jihatlarni qamrab oladi. Refleksiv-baholash komponenti esa UNESCO ICT-CFT tizimidagi "bilim yaratish" bosqichiga xos xususiyat bo'lib, o'qituvchining o'z faoliyati natijalarini mustaqil tahlil qilish qobiliyatini ifodalaydi ^[2].

Ta'kidlash joizki, mazkur to'rt komponent bir-biridan izolyatsiyalangan holda emas, balki o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi: kognitiv komponentsiz operatsional ko'nikmalar shakllanmaydi, motivatsion-qadriyat komponentsiz esa amaliy ko'nikmalar barqaror kasbiy sifatga aylanmaydi. Shu sababli baholash jarayonida komponentlarni alohida-alohida emas, balki kompleks tarzda o'lchash tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy tadqiqot natijasida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi kognitiv, operatsional-amaliy, motivatsion-qadriyat va refleksiv-baholash komponentlaridan iborat to'rt qismli tuzilma sifatida ilmiy asoslandi, shuningdek, har bir komponent uchun aniq baholash mezonlari taklif etildi.

Ishlab chiqilgan nazariy model quyidagi jihatlardan amaliy ahamiyatga ega:

- *birinchidan*, u pedagogika yo'nalishi o'quv dasturlarini mazkur kompetensiya komponentlariga mos ravishda takomillashtirish imkonini beradi;
- *ikkinchidan*, keyingi empirik tadqiqotlar uchun diagnostik instrumentariy (test, so'rovnoma, o'z-o'zini baholash varaqasi) ishlab chiqishga nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusi tadqiqotlarda ushbu modelni empirik tekshiruvdan o'tkazish va turli pedagogik yo'nalishlar bo'yicha uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mishra, P., Koehler, M.J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
2. UNESCO (2018). ICT Competency Framework for Teachers. UNESCO Publishing, Paris.
3. ISTE (2017). ISTE Standards for Educators. International Society for Technology in Education.
4. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Publications Office of the European Union, Luxembourg.
5. Xujakulov Sh.A., Qodirov T.B. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali.
6. Qurbonov H.X., Jumayev D.I. (2026). O'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishdagi yutuq va kamchiliklari. DOI: 10.5281/zenodo.19469245.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.